

XI bo'lim. DO'STLAR QANCHA KO'P BO'LSA, OLAM NURGA TO'LADI.

1-Mavzu: Do'stlikda hikmat ko'p

Dars maqsadi:

- Olqor Daminning "Yer yuzi bolalari" she'ri bilan tanishtirish;
- do'st tutinishning ahamiyatini tushuntirish;
- ifodali o'qish malakasini shakllantirish.

Tayanch so'zlar: yer yuzi bolalari, ahil, do'st,

Didaktik materiallar: mavzuga mos rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkillashtirib olish.

Faollashtiruvchi mashqni o'tkazish. *So'zlarning birinchi harfidan yangi so'z hosil qiling.*

Do'lana, o'rik, sabzi, tarvuz.

II. O'tilganlarni takrorlash. (8 daqiqa)

Asarni o'qing va mazmunini so'zlab bering. O'quvchilar bir-biriga asar yuzasidan savollar berishadi. Asardan chiqargan xulosasini o'qib berishadi.

III. Darsning asosiy qismi. (28 daqiqa)

Amaliy topshiriq. *"Do'st" so'zi boshqa tillarda qanday nomlanishini bilasizmi?*

Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. Siz qaysi tillarni o'rganyapsiz?
2. Ingliz tilida qanday nomlanishini bilasizmi?
3. Rus tilida-chi?

Mavzuni tushuntirish.

Darslikdagi rasm asosida suhbat o'tkaziladi.

"Aqliy hujum" metodi.

"Do'stlikda hikmat ko'p" deganda nimani tushunasiz?

O'quvchilarning fikri tinglanadi va to'ldiriladi.

Matn ustida ishlash. She'r muallifi haqida qisqacha ma'lumot beriladi.



etilgan.

Olqor Damini Samarqand viloyati Ishtixon tumanida tavallud topgan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. Uning **"Salom yaxshilik"**, **"Sabr haykali"**, **"Assalom, Navro'z!"**, **"O'lmas daholar"**, **"Afsona shahrim"**, **"Qirq muxammas"**, **"Qo'sh irmoq"**, **"Quchoqlayman bahorni"**, **"Navo"** nomli she'riy, **"Muattar o'ylar"** tanlangan asarlari nashr

Olqor Daminning "Yer yuzi bolalari" she'ri o'qitiladi. She'r yuzasidan savollarga javob beriladi.

- She'r nima haqida?
- She'rda Yer yuzi bolalari haqida nima deyilgan?
- Nima uchun bolalar "Et-tirnoqqa o'xshasin deyilgan?"
- Siz "Do'stlik" bog'ini qanday tasavvur qilasiz?

She'rni ifodali o'qish musobaqasi o'tkaziladi.

Kichik guruhda ishlash.

1. O'quvchilar juftlikda partadoshi bilan she'rdagi qofiyadosh so'zlarni aniqlashadi: yashasin-o'xshasin, bog' etsin- yaproq etsin, gul bersin-qo'l bersin-yo'l bersin...

2. She'rdagi satrlar necha bo'g'indan iboratligi topiladi: 7 bo'g'indan

3. Har bir ustundagi so'zning mosini tanlab maqollar hosil qilinadi.

Do'st	do'stning	sotilmas.
Qadim	do'stga	zanglamas.
Do'st	oltinga	qalqon.
Do'stlik	do'stlik	oynasi.

Maqollarning mazmunini ifodalanadi.

Mashq daftari bilan ishlash.

"Ma'nodoshini top" mashqi.

Quyidagi so'zlarga she'rdan ma'nodosh so'z toping.

Yaxshilik-ezgulik urush-jang

Barg- yaproq oftob-quyosh

3-topshiriq. Sinkveyin tuzing.

Kim? Do'st.

Qanday? Sodiqlik, mehribon.

Nima qiladi? Qo'llaydi, qadrlaydi, ishonadi.

Gap: Sodiqlik do'st doimo qo'llaydi.

Ma'nodosh so'z : O'rtoq.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (4 daqiqa)

- She'r nima haqida ekan?
- She'rdan qanday xulosa chiqardingiz?
- Fikrni davom ettiring: Agar do'sting bo'lmasa,...

V. Uyga vazifa. (2 daqiqa) She'rni yod oling. Tasavvuringizdagi "Do'stlik bog'i"ning tasvirini chizing.

2-Mavzu: Do'stlikning qudrati

Darsning maqsadi:

"Do'stlikning xosiyati" rivoyati bilan tanishtirish;
Do'stning inson hayotdagi o'rnini tushuntirish;
Bog'lanishli nutqini o'stirish, fikrlash qobiliyatini shakllantirish.

Tayanch so'zlar: donishmand, Ibn Sino, do'stlik

Didaktik materiallar. mavzuga mos rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkil qilish.

Faollashtiruvchi mashq: *So'z qo'ying va maqolni o'qing.*

_____ *bilan obod uying.*

II. O'tilganlarni takrorlash. (10 daqiqa)

She'r yoddan so'raladi. Tasavvuridagi "Do'stlik bog'i"ning rasmi ko'riladi.

III. Darsning asosiy qismi. (27 daqiqa)

Amaliy topshiriq: *"Mendan so'ra"* mashqi.

Partadoshingizdan quyidagi savolga javob oling.

Do'stingizdagi qaysi xislati sizga yoqadi?

Muhokama uchun savollar.